

MUSTAQIL FIKR - QARSHI TARG‘IBOT VOSITASI SIFATIDA

Vahabov M.T.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasi katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: globallashuv, ma'naviyat, ong, tafakkur, geosiyosat, mafkura, ma'naviy va g'oyaviy tahdid, informasion xuruj, diniy ekstremizm, vayronkorlik, buzg'unchilik, axloqsizlik, ommaviy madaniyat, zamonaviy texnologiya, targ'ibot va tashviqot, psixologik xavfsizlik, nonkonformizm, konformizm, mustaqil fikrlash, shaxsiy fikr.

Ключевые слова: глобализация, духовность, сознания, мышления, геополитика, идеология, духовно-идеологическая угроза, информационная атака, религиозный экстремизм, деструкция, вандализм, безнравственность, массовая культура, современные технологии, пропаганда и агитация, психологическая безопасность, nonkonformizm. konformizm, независимое мышление, личное мнение.

Key words: globalization, spirituality, consciousness, thinking, geopolitics, ideology, spiritual and ideological threat, information attack, religious extremism, destruction, vandalism, immorality, mass culture, modern technology, propaganda and propaganda, psychological security, non-conformism, conformism, independent thinking, personal opinion.

Резюме:

Ushbu maqolada hozirgi globallashuv davrida ma'naviy hayot va mafkuraviy jarayonlarning asosiy mayl (tendensiya)lari, targ'ibot va tashviqot fenomenlariga zamona kiritayotgan o'zgartish (korrektiva)lar, tobora xatarli tus olib borayotgan ma'naviy va g'oyaviy tahdidlar, ularga qarshi kurashda mustaqil fikrni o'rni, targ'ibot va tashviqot kabi sub'ektiv omillarning ahamiyati, targ'ibot va tashviqotni zamon talablari darajasida tashkil etish usul va vositalari ilmiy falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

Резюме:

В данной статье рассмотрены основные тенденции духовной жизни и идеологических процессов в период глобализации, с научной и философской точки зрения рассмотрены изменения (коррективы), вносящие современность в пропагандистские явления, возрастание опасных духовных и идеологических угроз, значение таких субъективных факторов, как пропаганда, а также методы и средства организации пропаганды на уровне современных требований.

Summary:

In this article, the main tendencies of spiritual life and ideological processes in the current globalization period, the changes (correctives) that bring modernity to propaganda and propaganda phenomena, the increasingly dangerous spiritual and ideological threats, and independent thought in the fight against them. place, the importance of subjective factors such as propaganda and



propaganda, the methods and means of organizing propaganda and propaganda at the level of contemporary requirements are analyzed from a scientific and philosophical point of view.

Kirish. Hozirgi davrning-globallashtirish davrining muhim xususiyatlaridan biri- insonlarning ongi va qalbi uchun kurash maydonining o'zgarayotganidir. Endi qonli urushlar, harbiy istilolar, iqtisodiy iskanjaga olishlar o'rniga tobora ko'proq mafkuraviy vositalar va ma'naviy qurollar ishlatilmoqda. Odamlarning tafakkuri, ongi, dunyoqarashini egallashga urinish tobora ko'proq ma'naviyat maydonida yuz bermoqda. Boshqa hudud va halqlarni o'ziga qaram qilish uchun ochiq ko'rish va sezish qiyin bo'lgan usul va vositalar, xususan g'oyaviy tazyiq, ma'naviy buzg'unchilik uslublari qo'llanilmoqda. Odamlarning ma'naviy hayotini egallagan, ongi va ong osti qatlamlariga kirib borgan mafkura g'oyaviy kurashda g'olib kelishi ayon bo'ldi. Binobarin, geosiyosatda u yoki bu kuchning qo'li ustun kelishi tobora mafkura va ma'naviyat sohasiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagilarning barchasi bugungi kunda mafkuraviy dunyoning o'ziga xosligini ifodalaydi va o'z navbatida xalqimizning, ayniqsa yoshlarimizning mafkuraviy daxlsizligi, turli taxdidlarga bardoshlilikini oshirish masalasini globallashtiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mustaqil fikrga ega bo'lishlik ma'naviy tahdidlarga nisbatan qarshi targ'ibotning eng samarali vositalaridan biri sifatida maydonga chiqishi mumkin. Demak biz yoshlarimizni eng avvalo psixologik xavfsizligini ta'minlashimiz darkor. Ilmiy manbalarda psixologik xavfsizlik-bu odamlarning ruhan, o'z iroda kuchi (mustaqil fikr) bilan turli ma'lumotlarga tayangan xurujlarga berilmaslikka tayyorlik xolati yoki shunga bog'liq jarayonni nazarda tutadi. Biz kattalar, ma'rifatchilar va mutaxassislar bu xolatning insondagi qaysi sifatlar va ruhiy kechinmalar bilan bog'liq ekanligini bilishimiz lozim, albatta.

Adabiyotlar tahlili va metadologiya. Psixologik jihatdan tahlil qilinganda, shaxsdagi xavfsizlik holatlari bir qancha tushunchalar vositasida izohlanadi: Nonkonformizm ayrim olingan shaxs yoki guruhning boshqa bir shaxs yoki ijtimoiy guruh ta'siriga berilmasligi, o'zida unga nisbatan qat'iy bir qarshilikning bo'lishini ifodalovchi xolati. Ayrim mutaxassislar nonkonformizmni "mafkuraviy immunitetning mavjudligi", deb ham ta'riflaydilar. Bu murosasozlik, ya'ni konformizm xodisasining aksi bo'lib, u real yoki tasavvurlardagi guruhning shaxs e'tiqodi va xulq-atvoriga ta'sirini tushuntiruvchi xodisadir. U ikki xil namoyon bo'lishi mumkin:

- yon berish-qalban qo'shilmasa-da, tashqi xarakterda ko'pchilik fikriga ergashish;
- ma'qullash -e'tiqod va qarashlarning ijtimoiy tayziqqa to'la mos kelishi.

Yon berish yoki ma'qullash shaxsning o'zligiga, mustaqilligiga putur etkazmaydimi, degan savol o'rinli bo'lib, uning javobini ikki manbadan - jamiyatning insonlar uchun ishlab qo'ygan normalari tizimidan, shunga mos tarzda odamning o'zgalar tomonidan tan olinishiga intilishidan va odamlarning o'zaro kommunikativ ma'lumotlar almashinishlari jarayonida so'zlar va iboralar orqali bir-birlariga etkazadigan ta'sirlari orqali tushuntirishga harakat qiladi. Shunday qilib, mustaqil fikrlash - shaxsning bevosita o'ziga bog'liq bo'lgan, uni tashqi muhitning turli ta'sirlariga nisbatan fikr-o'ylari vositasida munosabatda bo'lib, kerak bo'lsa, unga qarshilik ko'rsatish qobiliyatidir.

Mustaqil fikrning yo'qligi, afsuski, ayrim toifalar, xususan oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga tortilmagan yoshlar, ayollar o'rtasida uchrab turadi. Bunday holatda odamlarning buzg'unchi g'oyalar ta'siriga, yot mafkuralar girdobiga tushib qolish xavfi ortib boradi. Shaxsning fikrga qarshi fikr bilan, g'oyaga qarshi g'oya bilan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan qarshilik ko'rsata olish imkoniyati torayadi. Bu, aytish mumkinki, yoshlarni mafkuraviy nuqta nazardan tarbiyalashdagi eng katta muammolardan biridir.

Natija va muhokama. Aslini olganda, aynan biz, kattalar, murabbiylar ko'p holatlarda bolalarni - go'dakligidan, yoshlarni - o'spirinligidan faqat taqlid qilishga, aytilgandan chetga chiqmaslikka o'rgatamiz. Shu taxlit ularni irodasiz, qat'iysiz, o'ziga ishonchsiz qilib qo'yganimizni bilmay qolamiz. Bunday yoshlar xarakterlariga qarab, mustaqil fikrning yo'qligi tufayli, nochorligi va irodasizligi uchun ba'zan tanbeh va jazoga ham qoladi.

Yana bir bor ta'kidlash lozimki, mustaqil fikrlash – bu shaxsning kundalik hayotda ro'y berayotgan voqea-hodisalarning mohiyatini, ularning sirlarini aniqlash, tahlil qilish va ajrata olishga bo'lgan ichki qobiliyati, ruhiy tayyorligidir. Shunday psixologik holatgina odamni o'ylashga, mushohada yuritishga, fikrlashga undaydi. Bu o'rinda Uolter Lippmanning fikrini eslatish o'rinli bo'lsa kerak. Bu mashxur psixolog: «Hamma bir xil fikr yuritgan erda, hech kim ko'p o'ylamaydi», deb ta'kidlagan edi. Demak, aslini olib qaraganda, biz o'z madaniyatimiz va bizni o'rab turgan ijtimoiy borliqning hosilasi ekanmiz, vaziyatlarga bog'liqmiz va boshqalarning bizga ko'rsatayotgan ta'sirlari komida bo'lamiz.

Ayrim yoshlarning jaholat va diniy aqidaparastlikka berilishi, o'zi to'la anglamagan xolda turli xil buzg'unchi g'oya va da'vatlariga qo'shib ketishi, terrorizmning manfur xarakterlariga, jinoyatga sabab bo'lgan ko'plab voqealarga bosh qo'shishi aynan shunday vaziyat xukmida amalga oshganligi ma'lum. Shuning uchun asosiy vazifa – har bir odamni, u vaziyatdan ham ko'ra o'zining shaxsiy dunyoqarashi va e'tiqodini, sog'lom qarashlarini u yoki bu tahdidli va



tahlikali yoki konfliktli vaziyatlarga qarshi qo‘ya oladigan qilib tarbiyalash kerak.

Xulosa. Demak, shaxsiy fikr katta ahamiyatga ega. Odamlarning turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zlarini turlicha tutishlari, aslida ularning turlicha o‘ylashlaridan kelib chiqadi, o‘ylash, fikrlash, sovuq mulohaza yuritish san'ati milliy mafkura tarbiyasida biz kattalarga qo‘l keladigan pedagogik vositadir. Demak, pozitiv tafakkur, ijobiy fikrlash – yaxshi oqibatlarga, ijobiy natijalarga olib keladi. Agar biz farzandlarimizga, yoshlarimizga “O‘z yurtningning erkin fuqarosi bo‘l! O‘z taqdiringning o‘zing egasi bo‘l! Sen shunga munosibsan!” desak, uning ham fikri, ham xulqi shu zaylga tushadi. Xulosa shuki, hozirgi davrda har birimiz ma'naviy taxdidlarga nisbatan loqaydlik, beparvolik va beg‘amlilik illatidan xalos bo‘lishimiz, har bir fuqaro yurtimizda, jahonda sodir bo‘layotgan har qanday voqea, hodisa, jarayonlar menga, mening taqdirimga bevosita daxldor deb hisoblamog‘i darkor. Shu bois hozirgi o‘ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga etib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo‘lish bugungi kun ma'naviy targ‘ibotining eng dolzarb vazifasi, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutq. Nyu-York. 2017 yil 19 sentyabr. // Toshkent. “O‘zbekiston”. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. // “Xalq so‘zi”, 2020 yil 25 yanvar.
3. Krisko V. Sekreti psixologicheskoy voyni. M. 1997.
4. Otamurodov S. Globallashuv va millat. T.: 2008. “Yangi asr avlodi”. – B.12.
5. Shahnoza Qahhorova. Global ma'naviyat – globallashuvning g‘oyaviy asosi. T.: “Tafakkur”. 2009.
6. Abduvohid Ochildev. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. T.: “Muharrir”. 2009.
7. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo munosabatlar. T.: “Akademiya”. 2008.